

DOI: 10.5281/zenodo.15744952

Link: <https://zenodo.org/records/15744952>

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINING SAMARADORLIGINING TAHLILI (ATB "SANOATQURILISHBANK" MISOLIDA)

Raxmatov Temur Sotiboldiyevich PhD.

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

"Bank ishi" kafedrası dotsenti

E mail: temur0363@gmail.com

Tel: +99877-777-22-72

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston bank tizimidagi xizmatlarning daromadliligi, iqtisodiy samaradorligi o'rganilgan. Tijorat banklarining xizmatlar bozoridagi ishtiroki, raqobatbardosh banklar bilan birgalikda tijorat banklarining mijozlarni jalb qilish uchun amalga oshiradigan xizmat turlari, an'anaviy xizmat turlari, noan'anaviy xizmat turlari hamda yangi xizmat turlari ushbu maqolada keltirib o'tilgan. Bank maxsulotlari, ularning aholining ehtiyojidan kelib chiqib xizmat turlarining kengaytirilishi ko'rsatib berilgan. Bankning eng asosiy xizmat turlari sifatida tijorat banklarining depozit va kredit xizmatlarini ko'rsatilgan va tahlil qilingan. Ushbu xizmat turlari bankning kelib chiqishidan to bugungi holatigacha bo'lgan davrda ham bu o'z mohiyatini yo'qotmagan. Tijorat banklarning bugungi kundagi moliyaviy ko'rsatkichlari, ya'ni, ularning daromadlari, foizli daromadlari va foizsiz daromadlari, foizli xarajatlari, sof foizli daromadlari, kredit operatsiyalarining foizlaridan oladigan daromadlari dinamikasi hamda bir biriga bog'liqligi ATB "Sanoatqurilishbank" misolida tahlil qilib chiqilgan. Ushbu maqolada tijorat banklarining xizmatlarining samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki xizmatlari, bank operatsiyasi, depozit operatsiyasi, kredit operatsiyasi, foizli daromad, foizsiz daromad, foizli xarajat, sof foizli daromad, sof foyda, kredit foizlaridan olinadigan daromad.

Kirish.

Jahonda tijorat banklarining 300dan ortiq xizmat turlari mavjuddir. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ikki pog'onali tizimga asoslangan: markaziy bank va tijorat banklari. So'nggi yillarda respublikada bank tizimini isloh qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

2020–2024 yillar davomida tijorat banklarining soni 36 taga yaqinlashdi, ularning aksariyati universal banklar hisoblanadi. Tijorat banklari aktivlarining o'sishi, kredit portfeli hajmining kengayishi va mijozlar bazasining ortib borishi, bank xizmatlari samaradorligining oshayotganligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism

Tijorat banklari O'zbekistonda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri

sifatida aholi va korxonalar uchun moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi. Ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarini kreditlash orqali o'sish va rivojlanishni ta'minlaydi. Tijorat banklari orqali milliy iqtisodiyotga mablag'lar oqimining samarali yo'naltirilishi mumkin, bu esa O'zbekistonning makroiqtisodiy barqarorligi uchun zarur. Tijorat banklari – bu jismoniy va yuridik shaxslarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan, jamg'armalarni jalb qilib, kreditlar ajratish va pul oqimlarini boshqarish bilan shug'ullanadigan muassasalardir. Banklar orqali aholi va tadbirkorlik subyektlari o'z jamg'armalarini saqlash, mablag'larini samarali boshqarish va bizneslarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Bank krediti" atamasi korxona yoki jismoniy shaxsga bank muassasasi tomonidan kredit shaklida beriladigan kredit miqdorini bildiradi. Shunday qilib, bank krediti – bu shaxs yoki korxona bank yoki boshqa moliya muassasasidan qarz olishi mumkin bo'lgan umumiy pul miqdori. Qarz oluvchining bank krediti ularning har qanday kreditlarni to'lash qobiliyatiga va bank muassasasi tomonidan berilgan kreditning umumiy miqdoriga bog'liq.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank depoziti bo'yicha ko'plab tariflar keltirilgan. Jumladan:

Depozit – yuridik va jismoniy shaxslarning bank operatsiyalari natijasida mijozlarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, omonatlarni (depozit) qabul qilish va qarz majburiyatlari (depozit va omonat sertifikat, veksel, obligatsiya) ko'rinishidagi o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish bo'yicha jalb qilingan mablag'laridir.

Depozitlar – bank qonunchiligi va tartiblariga muvofiq mijozlar (jismoniy va yuridik shaxslar) tomonidan bankka qo'yilgan va ular tomonidan foydalaniladigan pul mablag'lari.

Bank depozitlari – saqlash uchun bank muassasalariga joylashtirilgan pul mablag'laridan iborat. Bu depozitlar omonat hisobvaraqlari, chek hisobvaraqlari va pul bozori hisobvaraqlari kabi depozit hisobvaraqlariga kiritiladi. Hisobvaraq egasi hisobvaraq shartnomasini tartibga soluvchi shartlarda ko'rsatilganidek, omonatga qo'yilgan mablag'larni yechib olish huquqiga ega.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari banklarning resurs bazasida muhim o'rin egallaydi. Tijorat banklarining depozit bazasi hajmi qanchalik ko'p va mustahkam bo'lsa, banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish ko'lami shunchalik kengayadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklar balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar (jalb qilingan mablag'lar) tashkil etib, ular jami bank resurslarining tarkibida 85-90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarning muddati va vujudga kelish manbasiga qarab, "barqaror" va "beqaror" mablag'larga, ular uchun to'lanadigan harajatlarni miqdoridan kelib chiqib, "arzon" va "qimmat" mablag'larga ajratish mumkin.

Depozitlarning turlari:

- talab qilib olinguncha depozitlar;
- jamg'arma depozitlari;
- muddatli depozitlar;
- jamg'arma (depozitli) sertifikat;

- boshqa depozitlar.

Talab qilib olinguncha depozitlar – yuridik va jismoniy shaxslarning kundalik maqsadlar uchun hohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin bo'lgan talab qilib olinguncha hisobvaraqlardagi mablag'laridir. Bank depozitorning birinchi talabiga ko'ra (depozit shartnomasida boshqa muddatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, depozitorning tegishli ko'rsatmasi bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechikmagan holda) uning to'lovlar bo'yicha topshirig'ini bajarishi zarur. Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun haq to'lash shartnomada belgilangan miqdorda amalga oshiriladi. Hisobvaraqa undagi qoldiqning o'rtacha miqdori oldindan kelishilgan holda bank bepul xizmat ko'rsatadi. Mijoz tomonidan ushbu shartlarga rioya qilinmagan taqdirda, ya'ni hisobvaraqa qoldig'ining kelishilgan miqdori kamaytirilsa, mijoz bankning pul-hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalari xarajatlarini bank bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan miqdorda to'laydi.

Jamg'arma depozitlari-davriy badallar asosida shakllanadigan jamg'arma depozitlari muayyan maqsadni amalga oshirish uchun depozit hisobvaraqa ma'lum miqdorda pul summasini jamlash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar nomiga ochiladi.

Muddatli depozitlar-banklar tomonidan jalb qilingan muddatli depozitlar – yuridik va jismoniy shaxslarning shartnomada qat'iy kelishilgan muddat va unda ko'rsatilgan foizlarni to'lashga doir mablag'laridir.

Muddatli depozitlar qo'yidagi muddatlar bo'yicha tasniflanadi:


- muddati 30 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 90 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 180 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 365 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 365 kundan ortiq bo'lgan depozitlar

Jamg'arma (depozit) sertifikat – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat egasining) sertifikatni bergan bankdan yoki uning har qanday filialidan belgilangan muddat tugaganidan so'ng omonat summasini va sertifikatda shartlashilgan foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi qimmatbaho qog'ozdir.

Jamg'arma (depozit) sertifikatlari taqdim etiladigan yoki egasi ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Jamg'arma (depozit) sertifikat muddatidan oldin to'lash uchun taqdim etilgan hollarda, agar depozit shartlariga ko'ra foizlarning boshqa miqdori belgilanmagan bo'lsa, bank ushbu sertifikat bo'yicha talab qilib olinguncha depozitlar uchun to'lanadigan omonat summasini va foizni to'laydi.

Tahlil va natijalar.

Tahlillarga ko'ra, 2025 yilning birinchi yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklarining aholi omonatlari 122,421 trln. so'm va yuridik shaxslarning depozitlari 186,272 trln. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich mos ravishda 2018 yil birinchi yanvar holatiga nisbatan 10,1 va 3,92 barobarga oshganligini ko'rish mumkin.(1-rasm)




1-rasm. Tijorat banklari aholi va yuridik shaxslar depozitlari qoldiqlari ¹⁰⁴ (mlrd. so'm)

Biz ushbu maqolamizda ATB “Sanoatqurilishbank” bank xizmatlarini tahlil qilamiz.

2-rasm ma'lumotlaridan ATB “Sanoatqurilishbank”ning 2015-2024-yillar davomida foizli daromadlari, foizli xarajatlari va sof foizli daromadlari keltirib o'tilgan. 2015-yilda bankning foizli daromadi 380,5 mlrd. So'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 1250,7 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Bundan 2015-2024-yillar mobaynida foizli daromad 3,5 barobar ortganini ko'rishimiz mumkin. Foizli xarajatlar esa, 2015-yilda 191,6 mlrd. So'mni bo'lgan, 2024-yilda esa 710,9 mlrd. So'mga ortgan. Bulardan o'z-o'zidan bilishimiz mumkinki, sof foizli daromad ham ortgandir, ya'ni, 2015-yilda sof foizli daromad 188,9 mlrd. So'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich 539,8 mlrd. So'mni tashkil qilgan. Bu esa, 2015-2024-yillar davomida sof foizli daromad salkam 3 barobarga ortganini ko'rishimiz mumkin.

¹⁰⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. ATB "Sanoatqurilishbank"ning Sof foizli daromadlari miqdori (mlrd.so'mda, 2015-2024yillar kesimida)¹⁰⁵

Quyidagi 1-jadval tahlildan ko'rishimiz mumkinki, foizli daromadlari 2015-yildan 2024-yilgacha 3,3 barobar oshgan.

✓ Foiz xarajatlari ham oshgan, lekin sof foiz daromadi doimiy ravishda ortib kelmoqda.

✓ 2020-yildan boshlab o'sish tezlashgan, bu esa kreditlash hajmining ortgani va foiz stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

✓ 2024-yilda eng yuqori darajaga yetgan – bu bankning yirik kredit portfeli va yuqori foiz stavkalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

1-jadval.

ATB "Sanoatqurilishbank"ning Sof foizli daromadlari miqdori (mlrd.so'mda, 2015-2024yillar kesimida)¹⁰⁶

yil	Foizli daromadlari	Foizli xarajatlari	Sof foizli daromadi
2015	380,5	191,6	188,9
2016	466,9	228,4	238,5
2017	521,3	260,7	260,6
2018	580,2	297,5	282,7
2019	634,1	336,2	297,9
2020	720,5	390,4	330,1
2021	800,3	450,7	349,6


¹⁰⁵ ATB "Sanoatqurilishbank" hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁰⁶ ATB "Sanoatqurilishbank" hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2022	950,8	530,6	420,2
2023	1120,4	620,3	500,1
2024	1250,7	710,9	539,8

Tijorat banklarining kredit xizmatini takomillashganlik darajasini tavsiflovchi muhit ko'rsatkichlardan biri – bu tasniflangan kreditlar tarkibining optimalligi va tahlil qilingan davr mobaynida ijobiy o'zgarganligidir.

3-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2015-yilda ATB "Sanoatqurilishbank" 380,5 mlrd. So'm foizli daromadga erishgan bo'lsa, shundan, iste'mol kreditlaridan olingan foizli daromad 150,3 mlrd. So'mni hamda biznes kreditlaridan olingan foizli daromadlar esa 230,2 mlrd. So'mga erishgan. 2024-yilda esa, foizli daromad 1250,7 mlrd. So'mni tashkil qilgan, 2015-2024-yillar davomida foizli daromad 3,3 barobarga oshgan. 2024-yilda iste'mol kreditlaridan olingan foizli daromad esa 550,5 mlrd. So'mga oshgan, 2015-2024-yillar davomida bu ko'rsatkich salkam 400 mlrd. So'mga ortgan. 2024-yilda biznes kreditlaridan olingan foizli daromad 700,2 mlrd. So'mni tashkil qilgan. 2015-2024-yillar davomida bu ko'rsatkich esa, 3,2 barobar oshganini ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. ATB "Sanoatqurilishbank" kredit foizlaridan olgan daromad miqdori (mlrd.so'mda, 2015-2024yillar kesimida)¹⁰⁷.

Tijorat banklarining foizli daromadlari kreditlar olingan daromadlar hisoblanadi, foizli xarajatlar esa, depozitlar, majburiyatlarning qaytarilishidan mavjud bo'lgan xarajatlar hisoblanadi.

Kredit va depozit operatsiyalari o'rtasidagi bog'liqlik tijorat banklarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biridir. Depozitlar banklar uchun kredit resurslarini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni taqdim etadi. Ushbu o'zaro bog'liqlik tijorat banklarining samarali ishlashida muhim rol o'ynaydi.

¹⁰⁷ ATB "Sanoatqurilishbank" hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Kredit va depozit operatsiyalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Barqaror depozit bazasi banklarga uzoq muddatli kreditlar berishni osonlashtiradi va bankning likvidlik holatini mustahkamlaydi. Bu esa bankning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa.

Raqobat muhitidagi o'zgarishlar banklar orasidagi kredit va depozit operatsiyalarini amalga oshirish usullariga ta'sir qiladi. Bozorda yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi banklarni o'z xizmatlarini takomillashtirishga va raqobatbardosh sharoitda yangi strategiyalarni ishlab chiqishga majbur qiladi. Bu esa banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

ATB "Sanoatqurilishbank"ning kredit siyosati va strategiyalari bankning muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bank qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirdi. 2021 yilda bank kredit foizlarini pasaytirish orqali mijozlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratdi. ATB "Sanoatqurilishbank" mijozlarining ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish asosida yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqadi, bu esa bankning raqobatbardoshligini oshiradi. Bankning strategiyasi mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni saqlab qolishga qaratilgan, bu esa barqaror o'sishni ta'minlaydi.

ATB "Sanoatqurilishbank"ning so'nggi 10 yildagi depozit operatsiyalari o'sishi sezilarli darajada rivojlandi. Bu davrda depozit hajmi 150% ga o'sdi. Mijozlar statistikasi ko'rsatadiki, depozit hisobvaraqlar soni va o'rtacha foiz stavkalari oshgan. Ko'plab mijozlar uzoq muddatli depozitlarni afzal ko'rishmoqda. Bu jarayon bankning innovatsion va raqobatbardosh foiz stavkalariga asoslangan depozit siyosati orqali amalga oshirilmoqda.

So'nggi 10 yil ichida ATB "Sanoatqurilishbank"ning kredit portfeli sezilarli ravishda kengaydi. Kreditlar hajmi o'rtacha 15% ga oshdi va xizmat sifati yaxshilandi.

Mijozlar soni ko'paydi, xususan, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda jismoniy shaxslarning o'rni katta. O'rtacha foiz stavkalari raqobatbardosh darajada saqlanmoqda.

O'zbekiston tijorat banklarining kelajakda kredit va depozit operatsiyalariga bo'lgan istiqbollari muhim ahamiyat kasb etadi.

- Aloqabank va Mikrokreditbankning kelajak strategiyalari bank faoliyatlarida innovatsiyalarni joriy qilish hamda mijozlar bazasini kengaytirishni o'z ichiga oladi.

- Kredit va depozit operatsiyalarining rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'zbekiston tijorat banklarining kelajakda kredit va depozit operatsiyalariga bo'lgan istiqbollari muhim ahamiyat kasb etadi.

- ATB "Sanoatqurilishbank"ning kelajak strategiyalari bank faoliyatlarida innovatsiyalarni joriy qilish hamda mijozlar bazasini kengaytirishni o'z ichiga oladi.

- Kredit va depozit operatsiyalarining rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Depozit operatsiyalaridagi asosiy tendensiyalar va o'zgarishlar.

- Foiz stavkalari va yangi xizmatlar joriy etilishi.

- Mijozlar uchun mavjud takliflar va xizmatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi yangi taxriri "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi yangi taxriri "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasining To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida Qonuni 01.11.2019 yildagi O'RQ-578-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-yanvardagi "2020-2025-yillarga mo'jallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi 2020-yil 30-dekabr № 276 (7778). 1-4-b.
6. Финансовая доступность в России: взгляд потребителя [Электронный ресурс] / Национальное агентство финансовых исследований. — Режим доступа: www.cgap.org/sites/default/files/WorkingPaper-Financial-Inclusion-in-Russia-Aug-2014-Rus.pdf (дата обращения 04.02.2016).
7. Питер С. Роуз, "Банковский менеджмент", М. 2007.
8. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - Toshkent.: «Iqtisod-Moliya», 2017-732 b.
8. Азларова А.А. Особенности развития банковской системы республики Узбекистан на современном этапе. Economics and Innovative Technologies, 11 (5), 1–7
9. Тоймухамедов, И., & Махкамова, Д. (2020). Цифровая экономика и её влияние на банковский бизнес в Узбекистане. *Экономика и инновационные технологии*, (2), 151–160. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11408
10. Bobakulov Tulkin Ibodullaevich. O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishning zamonaviy muammolari. http://fintech.tfi.uz/wp-content/uploads/2023/12/Moliyaviy_tehnologiyalar_3_son_2023_yil_1_Noyabr_ohir_gi_varinati2001.pdf
11. Raxmatov Temur Sotiboldiyevich. Moliyaviy globalizatsiya sharoitida o'zbekiston tijorat banklarining an'anaviy operatsiyalarini rivojlantirish yo'llari 08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent–2023
12. Raxmatov Temur Sotiboldiyevich Bank xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish yo'llari. iqtisodiy taraqqiyot va taxlil ilmiy elektron jurnali №5 2024 y. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/1356/1277>
13. Азларова, А., & Рахматуллаева, М. (2022). Трансформация банковского сектора – неотъемлемая часть процесса становления цифровой экономики в республике Узбекистан. Наука и научный потенциал: основа устойчивого

инновационного развития общества, 1(1), 34–37. <https://doi.org/10.47689/inlibrary-SSPBSIDS-2022-pp34-37>

14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobot ma’lumotlari

15. ATB “Sanoatqurilishbank” yillik hisobotlari